XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-avgust VI-108-115-7-94-K/24 Jomboy tumani

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Budjeti kodeksi”ning 126–moddasiga va tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish ishchi guruhining xulosalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jomboy tuman mahalliy budjetining “Yer uchastkalarga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari” hisobidan mablag‘lar 1-ilovaga muvofiq ajratilsin;

bunda:

yer uchastkalarga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan mablag‘lar 1-ilovaning 6-bandidagi 400 mln so‘m mablag‘ tuman Kengashi deputatlarining takliflariga asosan ajratilmasdan qoldirilsin.

2. Jomboy tuman mahalliy budjetining 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar 2-ilovaga muvofiq ajratilsin.

3. Jomboy tuman mahalliy budjetining avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalaridan tushgan mablag‘lar hisobidan mablag‘lar 3-ilovaga muvofiq ajratilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Salomov)ga byudjetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (B.Boyxurozov)ga belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish hamda Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Salomov)ga, tuman obodonlashtirish boshqarmasi (O.O‘sarov)ga va tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Uralov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlash topshirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Boxodirov)ga zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 16-avgustdagi
VI-108-115-7-94-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jomboy tuman mahalliy “Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari”ni yo‘naltirish bo‘yicha

Ming so‘m

T/R	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Xarajatlar mazmuni	Summasi
1.	Tuman hokimligi	Samarqand viloyat fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 2023-yil 26-yanvardagi 3-1185-22-apellyatsiyasi chiqargan hal qiluv qaroriga asosan Abayev Axmatga to‘lab berish uchun	54 200,0
2.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	O‘zbekiston sud boshqaruvchilari assosiatsiyasi Samarqand viloyat bo‘limidan bo‘lgan qarzdorlikni	41 349,0
3.	Axborot kutubxona markazi	Kitoblar sotib olish uchun	10 000,0
4.	Tuman hokimligi	Ish haqiga qo‘shimcha ustama uchun	90 109,0
5.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Ish haqiga qo‘shimcha ustama uchun	8 800,0
6.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tuman Kengashi deputatlarining takliflariga asosan ushbu mablag‘ ajratilmasdan qoldirilsin. (M-39 avtomobil yo‘li yonlarini betonlashtirish xarajatlari uchun)	-400 000,0
Jami:			**204 458,0**

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 16-avgustdagi
VI-108-115-7-94-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘lar yo‘naltirish bo‘yicha

Ming so‘m

№	Mablag‘ ajratiliyotgan tashkilot nomi	Xarajatlar mazmuni	Summasi
1.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	M-39 avtomobil yo‘li ënlarini betonlashtirish xarajatlari uchun	200 000,0
Jami:			**200 000,0**

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2024-yil 16-avgustdagi
VI-108-115-7-94-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Jomboy tuman mahalliy budjetining avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalaridan tushgan mablag‘lar hisobidan

Ming so‘m

№	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Xarajatlar mazmuni	Summasi
1.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Tumandagi yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish xarajatlari uchun	100 000,0
Jami:			**100 000,0**